



Thematic classification of Uzbek children's musical and game folklore

Tukhtasin RAJABOV¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2023

Received in revised form

15 June 2023

Accepted 25 June 2023

Available online

15 July 2023

Keywords:

folklore,
game,
music,
reality,
motif,
idea,
everyday games,
games about animals,
myth.

ABSTRACT

This article discusses the thematic classification of Uzbek children's folklore. The ideological content of the games is widely covered. It is also determined that the goals and objectives of children's musical games are divided into 3 types.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp340-345>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek bolalar musiqiy o'yin folklorining mavzuviy tasnifi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

folklor,
o'yin,
musiqi,
voqelik,
motiv,
g'oya,
maishiy o'yinlar,
hayvonlar haqidagi o'yinlar,
mif.

Ushbu maqolada o'zbek bolalar folklorining mavzuviy tasnifi haqida fikr yuritilgan. O'yinlarning g'oyaviy mundarijasi keng yoritilgan. Shuningdek, bolalar musiqiy o'yinlarining maqsad va vazifalari 3 turga ajratilganligi haqida ma'lumot berilgan.

¹ Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences (PhD), Department of Culture and Musical Performance, Bukhara State University.

Тематическая классификация узбекского детского музыкально-игрового фольклора

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фольклор,
игра,
музыка,
реальность,
мотив,
идея,
бытовые игры,
игры про животных,
миф.

В данной статье рассматривается тематическая классификация узбекского детского фольклора. Широко освещается идеологическое содержание игр. Также определено, что цели и задачи детских музыкальных игр делятся на 3 вида.

O'yinlar bolalar folklorining mustaqil, ommaviy, qadimiy va an'anaviy janrlaridan biri sanaladi. O'yinlar ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy mazmundorligi jihatidan folklorning boshqa janrlari qatorida turadi. Uning tarixiy-genetik ildizlari olis moziyga borib taqaladi. O'yin muayyan poetik taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan bo'lib, o'ziga xos ijro o'rniga, ijro holatiga, ijrochilarga, obrazlar olamiga, an'anaviy syujet tiplariga egaligi bilan xarakterlanadi. O'yinlarning asosiy ijrochilari turli yoshdagi bolalar bo'lib, ularda harakat va so'z qorishiqligida biror-bir hayotiy voqelikni bolalar tafakkuriga mos tarzda dramatik tasvirlash tamoyili yetakchilik qiladi.

O'yinlarning g'oyaviy mundariyasi keng va rang-barangdir. O'yinlarda qadimgi insonlarning turli e'tiqodiy qarashlari, mifologik tasavvur-tushunchalari, marosim va urf-odatlariga oid ma'lumotlardan tortib, yugurish, sakrash, merganlik ko'rsatish, kurashishga aloqador insonning jismoniy kuch-qudratini oshirishga xizmat ko'rsatuvchi har xil sinov musobaqalari, ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan aqlni charxlash sinovlari, real turmush kartinasi, kishilarning o'zaro munosabatlari, ishlab chiqarish holatlari – umuman, hayot voqeligi o'ziga xos badiiy ko'rinishlarda aks ettiriladi. Shu boisdan o'yin motivlarining aksariyati ta'limiy-didaktik xarakter kasb etadi. Ayniqsa, maishiy o'yinlarning syujet motivlari ijtimoiy-maishiy mohiyati bilan alohidalik kasb etadi.

O'zbek bolalar musiqiy o'yinlari juda serqirra. Ular pedagogik, psixologik, etnologik, tarixiy, fiziologik va folkloriy hodisa sifatida o'ziga xos jihatlarga ega. O'yinlarda bolalarning turmush tarzi, ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari aks etadi. O'yinlar mavzusiga, bolalar yoshiga, jinsiga, ruhiyatiga, qachon va qayerda o'ynalishiga, o'yinchilar tarkibiga, qanday tashkil etilishiga, tarkibida so'zning, harakat yoki predmetning ishtirokiga, syujet tiplariga, zamon voqeligiga munosabatiga ko'ra rang-baranglik kasb etadi. Shuning uchun o'yinlar xilma-xil ichki turlarga ajratib o'rganiladi.

O'zbek bolalar musiqiy o'yinlarini tasniflash bo'yicha o'zbek folklorshunosligida ma'lum tajribalar bor. Jumladan, G'. Jahongirov, O. Safarov va S. Galievlarning bu boradagi urinishlari diqqatga sazovordir.

Biz birinchi marta bolalar xalq musiqa o'yinlarining mazmuniga, tarbiyaviy yo'nalishiga, tarkibida badiiy so'z va harakatning o'zaro omuxtalikdagi ishtirokiga, obrazlar tarkibiga, syujet tipiga ko'ra ham bir-birlaridan farqlanib turishini aniqlab berdik. Ayniqsa, o'yinlarni folkloriy-adabiy hodisa sifatida tadqiq qilganda, bu farqlar ko'zga yanada yorqinroq tashlanib turishini ilmiy jihatdan ishonchli asosladi.

Demak, o'yinlarni tasnif qilganda ularga xos ana shunday farqli belgilarni, albatta, to'liq inobatga va e'tiborga olmoq lozim. Aks holda tasnifda mukammallik va yaxlitlik yetishmay qoladi.

O'yinlarda hayot voqeligi turli ko'rinishlarda, turli real va majoziy, hatto ba'zan mifologik obrazlar vositasida talqin qilinadi. O'yinlarning tuzilishi har xildir. Ular orasida syujetli va syujetsizlari bor. Syujetli o'yinlar esa bir-ikki yo undan ortiq epizodlardan iborat bo'ladi. O'yinlardagi motivlar o'yin turiga qarab o'zgarib turadi. Syujetli o'yinlar yana ma'lum syujet tiplariga egaligi bilan o'zaro farqlanib turadi.

Biz o'yinlarni og'zaki badiiy ijod namunasi-adabiy hodisa sifatida qarab, ularni obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va kompozitsiyasi, maqsadi va estetik vazifalari jihatidan shartli ravishda uch turga ajratdik:

- a) qahramonlik ruhidagi o'yinlar;
- b) hayvonlar haqidagi o'yinlar;
- v) maishiy o'yinlar.

O'yinlarning bu turlari bir-birlaridan o'zaro g'oyaviy mazmuniga, ijtimoiy voqelikni tasvirlash tamoyiliga, o'ynalish holatiga, ijro tabiatiga obrazlar talqiniga ko'ra farq qilib turadi. Biroq ular turli fasllarda bolalar orasida baravar o'ynab kelingan. Ularning biriga xos xususiyat ikkinchisida ham zohir. Shuning uchun ular o'rtasida muayyan yaqinliklar mavjud, barchasi bolalar o'yini nomi ostida yaxlit tizim shaklida birikkan.

a) **Qahramonlik ruhidagi o'yinlar.** Bolalar o'yinlari silsilasida qahramonlik ruhidagi o'yinlar alohida turkumni hosil qiladi va o'ziga xos ayricha o'ringa ega. Bunday o'yinlarda qahramonlik yuksak darajada madh etiladi. Ularda qahramon (o'yin ishtirokchisi)ning jismoniy kuch-qudrati, pahlavonligi, polvonligi, merganligi, tadbirkorligi, epchilligi, chaqqonligi, botirligi yoxud aql-idroki, zehni sinovdan o'tkaziladi. Xullas, qahramonlikning har bir harakati sinov motivi bilan bog'lanishi va shu asosda qahramonga baho berilishi bu xil o'yinlarning asosiy xususiyatidir. Qahramon turli qiyinchiliklarga, murakkabliklarga, noqulay vaziyatlarga, sinovlarga duch kelishi bilan bu tipdagi o'yinlarning voqealari rivojlanib boradi. Shuning uchun sinov motivi bu xildagi o'yinlarda eng faol motiv hisoblanadi.

Qahramonlik ruhidagi o'yinlar o'ziga xos syujet kompozitsiyasiga ega. Ular syujetida shart qo'yilishi va uning yechilishi motivi muhim o'rin tutadi. O'yin yechimida, albatta, g'olib (qahramon) aniqlanib, uning muvaffaqiyati rag'batlantiriladi. Qahramon kuch-qudratini, aqlini sinovdan o'tkazish, qahramonni ideallashtirish xalq epik asarlariga xos an'anaviy poetik motiv bo'lib, keyinchalik u xalq o'yinlari syujetiga ham singgan. Kelajakda qahramon, pahlavon, xalq homiysi va himoyachisi bo'lib yetishadigan yoshni aniqlash, yoshlarning hayotiy qiyinchiliklarga bardoshini sinovdan o'tkazish va tarbiyalash ehtiyoji, shuningdek, har bir bolaning jismoniy sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib voyaga yetishini istab, qahramonlikni ulug'lovchi bolalarning xalqona o'yinlari yaratilgan. Bu tipdagi o'yinlar ikki bosqichda rivojlanib borgan: **Birinchi bosqichda** bolaning **jismoniy kuch-qudratini sinash** vositasi sifatida xizmat qiluvchi o'yinlar turkumi vujudga kelgan. **Ikkinchi bosqichda** bolaning **aql kuchini sinash** vositasi bo'lgan ma'naviy (so'z) o'yinlari shakllangan.

Umuman olganda, qahramonlik ruhidagi bolalar o'yinlarida insoniy qudrat-odamzotning jismoniy va aqliy kuchi ulug'lanadi. Bunday o'yinlar orqali bolalar jismoniy va aqliy kuch-imkoniyatlarini birlashtira olsagina insoniyatga xos shon-sharafga, baxt-saodatga erishishlari mumkinligini his etadilar. Shuning uchun bu xildagi o'yinlar bolalarning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlashdan iborat didaktik g'oyani tashiydi.

Botirlik, jasorat ko'rsatish, g'alabaga erishish uchun har qanday dushmanni mag'lub qilmoq zarurligi, bu yo'lda qahramonlik ko'rsatish g'oyasi qahramonlik ruhidagi o'yinlarning asosiy mazmunini tashkil etadi va yetakchilik qiladi.

Qahramonlik ruhidagi o'yinlarning syujet qurilmasi nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon o'z maqsadiga erishish yo'lida turli qiyinchiliklarga, sinovlarga duch keladi. Biroq u barcha qiyinchiliklarni yengib, o'z maqsadiga erishadi. Yo'lida unga to'sqinlik qilmoqchi bo'lgan raqiblarini o'z kuch-qudratini ishga solib, mag'lub etadi.

Qahramonlik ruhidagi o'yinlarning asosini xalqchil g'oyalar, umuminsoniy qarashlar tashkil etadi. Bu xil o'yinlar vositasida bolalar ongiga vatanparvarlik, do'stlik, rostgo'ylik, halollik, shijoatkorlik tuyg'ulari singib boradi.

Qahramonlik ruhidagi o'yinlarda onaboshi (o'yin boshqaruvchisi)ning alohida o'rni va roli bor. Bu tipga mansub o'yinlarda onaboshi ko'pincha qonuniy hukmdor, o'zi bosh bo'lgan jamoa uchun qayg'uruvchi, uni turli dushmanlar bosqinidan, zulmidan himoya qiluvchi uddaburon boshqaruvchi, dono yo'lboshchi sifatida g'avydalanadi.

Qahramonlik ruhidagi o'yinlarda epik asarlarga, ayniqsa, ertakka xos qahramonning o'zga mamlakatga safarga chiqishi motivi keng miqyos kasb etgan. Ertak va dostonlarda bu motiv qahramonning o'z sevgilisini axtarib yoki uni olib kelish uchun o'zga yurtga safarga chiqishi shaklida uchrasa, bolalar o'yinlarida u onaboshining mifologik personaj – kampir tomonidan o'g'irlab ketilgan bolalarini qutqarib olib kelishi sifatida talqin etiladi. Buning uchun onaboshi o'zga mamlakat hukmdori, mifologik obraz – kampir talabi bilan (ertaklarda bu obraz yalmog'iz kampir yoki dev, dostonlarda esa maston kampir timsollarida ifoda etiladi) u belgilangan shartlarni bajarishi va o'z bolalarini olib, yana o'z joyiga qaytishi lozim. Shu tariqa qahramonlik ruhidagi o'yinlarda jamoa birligi, mustaqilligi, erki, g'alabasi uchun onaboshi, ya'ni hukmdorning kurashishi, fidoiylik ko'rsatishi, demakki, uning odilligi ifoda etiladi. Ayniqsa, maqsadga erishish uchun chidamli, sabrli, mard, jasur, epchil, dono, ziyrak bo'lish kerakligi g'oyasi shu zaylda bo'rttiriladi.

Qahramonlik ruhidagi o'yinlarda o'yin ishtirokchisining biror-bir narsaga erishishi yoki uni qo'lga kiritish uchun urinishi motivi ko'zga alohida tashlanib turadi. Ma'lumki, bunday motiv ertak va dostonlar syujetida ham uchraydi. Biroq o'yinlarda qahramon o'zi intilayotgan narsaga, g'alabaga ertak va dostonlardagi kabi birorta homiy kuch ko'magida, sehr-jodu, tilsim vositasida emas, balki faqat o'z jismoniy va aqliy kuch-qudrati natijasida erishishi amalda ko'rsatib beriladi.

O'yin ishtirokchisining qudratini sinab ko'rish qahramonlik ruhidagi o'yinlarning asosiy belgisidir. Bunda sinash, albatta, musobaqa shaklida bo'ladi. Bolalarning uzoqqa yugurish, uzoqqa sakrash, merganlikdagi mahorati, bilagidagi kuchi sinovdan o'tkazilib, g'olib-haqiqiy qahramon aniqlanadi. "Oq terakmi ko'k terak", "Uchchala qiz", "Kim chaqqon", "Eng chaqqon", "To'p otish", "Mergan", "Kim tezroq?", "Arqon tortish", "O'q va yoy otish", "Tayoq bilan mo'ljalga urish" kabi qator o'yinlar shular sirasiga kiradi.

b) **Hayvonlar haqidagi o'yinlar** ham bolalar o'yin folklorining mustaqil mavzuiy bir turidir. Ular, asosan, majoziy ma'no kasb etadi. Chunki bu xil o'yinlarda, odatda, kuchli va kuchsiz jonivorlarning, jumladan, mushuk bilan sichqon, bo'ri bilan quyon yoki g'oz, tulki bilan o'rdak, xo'roz bilan tovuq va hokazolar o'rtasidagi konfliktli munosabat orqali ma'lum ijtimoiy-siyosiy ma'no ilgari suriladi.

Hayvonlar haqidagi o'yinlarning syujetiga, hech shubhasiz, hayvonlar to'g'risidagi ertaklar syujeti ta'sir ko'rsatgan. Bu esa hayvonlar haqidagi o'yinlarning obrazlar tarkibidan, syujetidan, nomlanishidagi o'xshashligidan yorqin sezilib turadi. Bu jihatdan

“O‘rdak-tulki”, “Xo‘roz-tovuq”, “Bo‘ri keldi”, “Epchil quyon”, “G‘ozlarim”, “Chumchuqlar va mushuk” kabi hayvonlar haqidagi o‘yinlar xarakterlidir. Ularda hayvon personajlariga ishtirok etadi. Syujetida inson personaji uchramaydi. Bolalar hayvon personajini talqin qilar ekanlar, uning ovozigga, harakatlariga taqlid qilib, o‘sha jonivorning real obrazini tasvirlab ko‘rsatishga harakat qiladilar. Bunday o‘yinlar vositasida bolalarning ochko‘zlikka, tekinko‘zlikka, yovuzlikka, zulmga nafrat, adolat, erkinlik, aqllilik, tadbirkorlik uchun intilish tuyg‘usini tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

Hayvonlar haqidagi o‘yinlarda ibtidoiy insonning totemistik tushunchasiga ko‘ra hayvon va qushlar odamlar kabi ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi degan tasavvuri saqlanib qolgan. Shuning uchun bolalar ma‘lum bir hayvon personaj obrazida o‘ynasalar, uning nomidan gapirishga, harakat qilishga, u kabi xatti-harakatda bo‘lishga intiladilar.

Hayvonlar haqidagi o‘yinlarning hammasi ham majoziy ma‘no kasb etavermaydi. Ularning ayrimlarida haqiqiy hayot kartinasi; dehqon, cho‘pon, parrandaboqarning turmush tarzi va mehnat sharoitiga aloqador u yoki bu voqea ifodalab ko‘rsatiladi. Masalan: “Poliz”ga kirgan, shuningdek, “Quyonlar”, “Chumchuqlar” kabi o‘yinlarda ekin-tikinga jonivorlarning zarar etkazib, dehqonga tashvish tug‘dirishiga daxldor real hayot manzarasi tasvirlab ko‘rsatilgan.

Hayvonlar haqidagi o‘zbek bolalar o‘yinlarida bo‘ri, ayyor tulki, echki, quyon, ayiq polvon, xo‘roz, tovuq, laylak, ilon kabi jonivorlarning obrazlari ko‘p uchraydi. Bulardan bo‘ri, tulki, ayiq polvon rolini o‘ynovchi o‘yinchi yakka bo‘lib, ko‘pincha galdga turib, qochgan bolalarni quvib ushlab oluvchi vazifasini bajaradi. Echki, quyon, tovuq rolini bajaruvchi o‘yinchilar esa ko‘pchilik bo‘lib, tutqich bermay qochish vazifasida o‘ynaydilar. Ma‘lumki, bu personajlar ertaklarning asosiy personajlari hisoblanadi. Umuman, ular turkiy xalqlar folklorining ertak va o‘yin janrlarida ko‘p uchraydi.

Hayvonlar haqidagi o‘yinlarning o‘ynalish jarayoni juda hayajonli, shavqli bo‘ladi. Chunki bu xildagi o‘yinlarni o‘ynaganda bolalar o‘zi bajarayotgan hayvon obrazini jonli yaratish uchun o‘sha hayvonning ovozigga taqlid etishadi, uning xatti-harakatlariga mos qiliqlar qilishadi. O‘yin kompozitsiyasidagi she‘riy parchalarni ohang bilan ijro etishga urinishadi. Bu esa bolalarning zavqini yanada oshirishga turtki bo‘ladi.

Xullas, hayvonlar haqidagi o‘yinlar tarkibida hayvon personaj ishtirok etishi, o‘ziga xos o‘ynalish tarzi, o‘ynalish joyi, g‘oyaviy mazmuni, syujet kompozitsiyasiga ko‘ra alohidalik kasb etadi va bolalar o‘yinlari orasida muayyan mustaqil turkumni tashkil qiladi.

v) **Maishiy o‘yinlar ham** bolalar musiqaiy o‘yin folklorining alohida mavzuiy turini tashkil etadi.

Umuman, o‘zbek bolalar musiqiy o‘yinlarining har bir turi real voqelikka nisbatan munosabatni o‘ziga xos tarzda ko‘rsatadi. Ularda bolalar tafakkuriga mos holda hayotni aks ettirish o‘ziga xos poetik motiv sifatida shakllangan. Shuning uchun o‘zbek bolalar o‘yinlarining ifodaviy uslubini, obrazlar tarkibini, mazmuniy turlarini, syujeti va kompozitsiyasini yaxlit holda o‘rganish orqali bolalar folklorining tarixiy taraqqiyotini va uning o‘zbek folklori tarkibida epik va poetik an‘analarni saqlab qolishdagi rolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. K.Imomov, T.Mirzayev., B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 1990. –B.304.
2. O.Safarov, D.O‘rayeva, O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi. O‘quv qo‘llanma. 2 jildlik. – Buxoro, BuxDU nashriyoti, 2006.

3. N.Hotamov, B.Sarimsoqov, Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: “O‘qituvchi”, 1979. –B. 234.
4. N.Safarova. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining tabiati va badiiyati. – T.: Fan, 2007.
5. T.I.Rajabov Maktabda musiqa ta’limida folklor qo‘shiqlarining o‘rni //Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Toshkent. – 2016. – S. 122-126.
6. Ибодович Р.Т. ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА ЗАНЯТИЯХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ //Европейский научный журнал. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 139-141.
7. Rajabov T. I. THE ROLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS IN YOUTH EDUCATION IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 884-889.
8. Rajabov T. I. Distinctive Features of Folk Songs That Serve in The Spiritual and Moral Formation of Pupils International Journal of Culture and Modernity <https://ijcm.academicjournal.io> ISSN 2697-2131,Volume 29/ Jun-2023
9. Rajabov T. I. The Role of Folk Songs in Children's Education MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io> Middle European Scientific Bulletin, Volume 37 | June-2023
10. Rajabov T. I. ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКИСКОМУ МУЗЫКАЛЬНОМУ ФОЛЬКЛОРУ Образование и инновационные исследования (2023 год №7) ISSN 2181-1717(E) <http://interscience.uz> международный научно – методический журнал
11. Rajabov T. I. Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class Скопос <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277> ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397
12. T.I.Rajabov, Umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa darsida buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning ahamiyati Илимий-методикалық журнал Муаллим ҳәм узликсиз билимлендириў 2023 2/2-сан март-апрель Нөкис 259-267-бет